



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 184 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengeldayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
<i>Abduvaxobova Nodira</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
<i>Ismailova Nozima Umaraliyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
<i>Utanbayeva Dildora Abdixadirovna</i>	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
<i>Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
<i>To'raqulov Akbar Rustam o'g'li</i>	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
<i>Temirova Muyassar Abdulkarim qizi</i>	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
<i>Raximova Surayyo Otabek qizi</i>	

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOGNITIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI

Ismailova Nozima Umaraliyevna

Namangan Davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv faollikning yuqori darajasini ta'minlaydigan asosiy shartlardan biri – axborotga boy, faoliyatga yo'naltirilgan o'quv muhitining mavjudligi ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ushbu muhitda amaliy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatining yaratilishi, o'quvchi uchun mazmunli axborot maydoni va unda faol qatnashish imkoniyati uning kognitiv qiziqishini uyg'otishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv faol shaxs, fanlararo integratsiya, kognitiv qiziqish, sensorik tajriba, amaliy faoliyat muhiti.

Abstract: This article discusses that one of the key conditions for ensuring a high level of cognitive activity is the presence of an information-rich, activity-oriented learning environment. It is also emphasized that opportunities for engaging in practical activities, creating a meaningful information field for the learner, and active participation in this environment stimulate cognitive interest.

Key words: cognitively active personality, interdisciplinary integration, cognitive interest, sensory experience, practical activity environment.

Аннотация: В данной статье рассматривается, что одним из основных условий обеспечения высокого уровня когнитивной активности является наличие насыщенной информацией и ориентированной на деятельность учебной среды. Кроме того, подчеркивается, что возможность заниматься практической деятельностью, создание содержательного информационного поля для учащегося и его активное участие в нем способствует пробуждению когнитивного интереса.

Ключевые слова: когнитивно активная личность, междисциплинарная интеграция, когнитивный интерес, сенсорный опыт, практическая деятельность.

KIRISH

XXI asrda inson kapitali va bilim iqtisodiyotining o'sishi fonida ta'limdan talab qilinayotgan asosiy vazifa – bilim berish emas, balki bilimni anglash, ishlab chiqish va qo'llashga yo'naltirilgan ongli, faol, tanqidiy fikrlovchi avlodni tarbiyalashdir. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish bugungi kunda jahon ta'lim siyosatida muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Jumladan, BMT, UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan ta'lim indikatorlarida ham kognitiv ko'rsatkichlar (critical thinking, problem solving, learning to learn, cognitive flexibility) global raqobatbardoshlikning muhim mezonlari sifatida qayd etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, har bir mamlakat ta'lim tizimi uchun fuqarolarida mustaqil fikrlovchi, intellektual jihatdan faol va adaptiv shaxsni shakllantirish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Jahon ta'limidagi hozirgi ustuvor yo'nalishlar o'quvchini bilim oluvchi emas, balki faol, ongli va ijodiy fikrlovchi subyekt sifatida shakllantirishni ko'zda tutmoqda. Shu bois, kognitiv faollikni rivojlantirish nafaqat pedagogik vazifa, balki ijtimoiy hamda madaniy ehtiyojga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika sohasida kognitiv yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchilarni bilim olish jarayonining faol subyektiga aylantirish, tanqidiy fikrlash va ijodiy tafakkurni shakllantirish masalalari O. Musurmonova, T. Sultonov, B. R. Qodirov, B. M. Ochilova, K. B. Qodirov, Sh. Do'stmuhammedova, D. Q. Asqarova, G. K. Alimova, M. X. Tashibekova, F. Abdug'opirova, Sh. Nurullayeva, N. Karimova, M. Asqarova, N. Abdusamatova kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning izlanishlarida bilish jara-



yonining faolligi, shaxsiy tajribaga asoslangan o'rganish, o'quv faoliyatini individuallashtirish va faollashtirish yo'llari asoslab berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida pedagogika va psixologiya sohasida o'quvchilarning bilish jarayonlari mexanizmlari, idrok, xotira, tafakkur va tasavvurning rivojlanish jarayonlari L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev, S. L. Rubinshteyn, D. B. Elkonin, V. V. Davidov, P. Ya. Galperin, A. A. Smirnov, I. A. Zimnyaya, V. I. Andreyev, E. S. Polat, O. S. Gazman, N. F. Talizina, N. E. Shiyanov kabi olimlar tadqiqotlarida asoslab berilgan. Ayniqsa, Zimnyaya tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv-kompetensiyaviy yondashuvda bilimlar majmuasi emas, balki o'quvchining faoliyatga tayyorligi, mustaqil fikr yurita olishi va refleksiya qobiliyati ta'lim samaradorligining o'lchovi sifatida talqin etiladi.

Xorijiy olimlardan B. Bloom, R. Sternberg, J. Bruner, H. Gardner, A. Bandura, J. Bergmann, A. Sams, J. Hattie tadqiqotlarida konstruktivistik ta'lim modeli, Flipped classroom texnologiyasi, STEM/STEAM yondashuvlari, Inquiry-Based Learning (so'rovga asoslangan o'qitish) va Project-Based Learning (loyihaviy o'qitish) usullari orqali o'quvchilarning kognitiv faolligini kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilingan.

Biroq Flipped classroom texnologiyasi va autogen xususiyatli topshiriqlarning integratsiyasi orqali kognitiv faollikni rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda Flipped yondashuvni yoshga moslashtirish, unga mos mashg'ulot va topshiriqlar tizimini yaratish, shuningdek, yosh xususiyatiga mos, o'quvchini emotsional va ruhiy jihatdan kognitiv faoliyatga tayyorlovchi mashqlar tizimini dars jarayoniga integratsiyalash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan to'liq tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, metodik va pedagogik adabiyotlar hamda manbalar, DTS, malaka talablari, o'quv va istiqbol rejalar, fan dasturlari, darsliklar, milliy va xorijiy tajribalar qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov ishlari va natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida o'quvchilarda ongli bilishga intilish, mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, umumlashtirish, muammo yechimini topish, shuningdek, o'z fikrini asoslash va meta-kognitiv nazoratni shakllantirish masalalari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, Finlyandiya ta'lim modelida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va o'z ta'limini boshqarish salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Janubiy Koreya va Yaponiya ta'lim tizimlarida ham intellektual salohiyatni rag'batlantirishga qaratilgan o'quv loyihalari, virtual laboratoriyalar va aqliy mashqlar keng joriy etilmoqda. AQSh, Kanada, Singapur kabi mamlakatlarda esa STEAM, Flipped classroom, muammoli ta'lim kabi innovatsion texnologiyalar asosida o'quvchilarning kognitiv darajasini oshirishga oid tendensiyalar ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli ta'lim islohotlarining zahirida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va kognitiv faol shaxsni tarbiyalash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ta'lim mazmunini yangilash, fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM texnologiyalarini joriy etish, raqamli didaktika vositalaridan keng foydalanish – bularning barchasi o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirishga qaratilgan strategik choralar sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida kognitiv faollikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Bu esa nafaqat bilimli, balki fikrlovchi, muammolarga tahliliy yondashuvchi va o'z pozitsiyasini ongli ifoda eta oladigan yangi avlodni tarbiyalashni taqozo etadi.

Kognitiv faollikning yuqori darajasini ta'minlaydigan asosiy shartlardan biri – bu axborotga boy, faoliyatga yo'naltirilgan o'quv muhitining mavjudligidir. Shuningdek, ushbu muhitda amaliy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatining yaratilishi o'quvchiga mazmunli axborot maydonida faol qatnashish imkonini beradi, uning kognitiv qiziqishini uyg'otadi, izlanishga undaydi va bilishga bo'lgan ichki ehtiyojni faollashtiradi.

Biroq bilish faolligining ushbu darajasiga erishishga asosiy to'siqlardan biri sifatida ta'lim jarayonida nazariy shakllarning juda erta joriy qilinishi, shuningdek, bolaning hali to'liq shakllanmagan emotsional-hissiy va amaliy tajribasini e'tiborga olmasdan uni erta bosqichdayoq "kitob madaniyati"ga ortiqcha jalb etish ko'rsatiladi. Bu holat bolaning sezgi-idrokka asoslangan bilish yo'nalishlarini cheklaydi, unga begona bo'lgan abstrakt tushunchalarni erta o'zlashtirishga majbur etadi va natijada tabiiy bilish qiziqishi so'nib qolishi mumkin.

Bilish faolligining rivojlanishi uchun, ayniqsa boshlang'ich bosqichda, sensorik, tajribaviy va faol faoliyat muhitini yaratish zarur. Bilimlar faqat nazariy shaklda emas, balki amaliy tajriba, kuzatuv, izlanish va faol ishtirok orqali o'zlashtirilgandagina o'quvchining ichki motivatsiyasi va bilishga bo'lgan intilishi barqaror rivojlanadi.

Boshqacha qilib aytganda, o'quvchining sezgi va amaliy faoliyatga asoslangan shaxsiy tajribasini boyitishga xizmat qiladigan barcha omillar uning bilish faolligini rivojlantiradi. Aksincha, unga hali zarur bo'lmagan bilimlarning tayyor holda erta berilishi – ya'ni o'quvchida bu bilimlarni o'z tajribasi bilan bog'lab anglash ehtiyoji shakllanmasdan ilgari ularni berish – tabiiy bilish qiziqishining susayishiga olib keladi.

Bilish faolligining keyingi darajasi – bu bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, u o'quvchi tomonidan bilish muammolarini hal qilish, aqliy yutuqlarga erishish istagi bilan namoyon bo'ladi. Mazkur faoliyat darajasi ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida yorqin ifodalanadi. Bu yosh davrida bilish faolligining rivojlanishi mantiqiy tafakkurning shakllanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu bosqichning yetakchi psixik rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi.

Shu sababli, ushbu darajadagi faoliyatga quyidagi xususiyatlar xosdir:

- intellektual masalalarni mustaqil hal qilishga intilish;
- bu masalalarni yechish uchun zarur vositalarni egallashga qiziqish;
- intellektual muvaffaqiyatga erishishga ehtiyojning ortishi;
- o'rganilayotgan mavzu yuzasidan “bu qanday bajariladi?”, “nima uchun aynan shunday qilish kerak?”, “qanday qilish to'g'ri, qanday noto'g'ri?” kabi savollarni faol berish;
- taklif etilgan faoliyat usullarini egallashga yo'naltirilgan ijobiy o'quv motivatsiyasi;
- murakkab amaliy operatsiyalarni o'zlashtirish va yangi bilimlarni o'rganish bilan bog'liq ijobiy emotsional kechinmalar;
- noma'lum so'z va tushunchalarga qiziqishning kuchayishi;
- bilish qiziqishining situatsion xarakter kasb etishi, ya'ni yangi ma'lumot olingach yoki topshiriq bajarilgach qiziqishning so'nishi; haddan tashqari ko'p axborot taqdim etilganda esa “psixologik to'yinish” alomatlarining yuzaga kelishi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilish faolligi asosan intellektual qiziqish, mantiqiy tafakkurni shakllantirish va amaliy bilimlarni o'zlashtirish ehtiyoji bilan boshqariladi. Ushbu davrda berilgan ta'lim mazmuni va metodikasi o'quvchining psixik rivojlanish darajasiga mos kelgan taqdirdagina u izchil bilish faolligini namoyon etadi.

Kognitiv faollik o'quv faoliyatining asosiy samaradorlik omilidir, chunki u o'quvchining intellektual, emotsional va motivatsion salohiyatlarini uyg'unlashtirib faollashtiradi. O'quv jarayonida bilimlarni tayyor holda qabul qilishdan ko'ra, o'quvchining bilimni izlab topishi, muhokama qilishi, savol qo'yishi, taxmin yuritishi va xulosa chiqarishi ta'limda chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu esa kognitiv faollikni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiya, metod va psixologik yondashuvlarning zarurligini belgilaydi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar kognitiv faollikni rivojlantirishda faol o'qitish texnologiyalari, reflektiv yondashuv va o'z-o'zini baholash metodlarining ustuvorligini ta'kidlaydi. AQSh, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasida “bilimni izlash orqali o'zlashtirish”, “muammoni anglash orqali fikrlash” tamoyillariga asoslaniladi. Mahalliy olimlar (T. Yo'ldoshev, N. Jo'rayev, M. Zokirova, F. Abdug'opirova, M. Tashibekova) esa kognitiv faollikni shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv, emotsional qo'llab-quvvatlash va didaktik moslashtirishning muhimligini asoslaganlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish modeli bosqichlilik, integratsiya, refleksiya va faoliyatga yo'naltirish kabi tamoyillarga asoslangan bo'lib, u o'quvchining individual rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu modelda o'quv faoliyati shunchaki axborot olish emas, balki shaxsiy tajriba asosida bilim qurish, his qilish, baholash va qayta ishlab chiqish jarayoni sifatida tashkil etiladi. Model Flipped classroom texnologiyasi, autogen topshiriqlar tizimi va reflektiv yondashuvni uzviy bog'laydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Ona tili” va “O'qish savodxonligi” fanlarida Flipped classroom texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarni mustaqil ravishda axborot bilan ishlashga, uni ongli tahlil qilishga hamda sinfda faol muhokama qilishga undaydi. Bu esa ularning kognitiv faolligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur texnologiyada o'quvchilar uyda oldindan video, hikoya yoki matn bilan tanishib chiqadilar, dars jarayonida esa amaliy tahlil, savol-javob, kichik guruhli bahs va reflektiv suhbatlar orqali bilimlarini chuqurlashtiradilar. Ushbu yondashuv o'quvchilarning tafakkuri, tasavvuri va fikr bildirish jarayonlarini faollashtiradi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultanov, T. (1995). Problemi razvitiya intellektual'nogo potentsiala nezavisimoĭ Respubliki Uzbekistan (na primere razvitiya nauchno-pedagogicheskikh kadrov vyssheĭ shkoly) (Dissertatsiya, kandid. filosof. nauk). Toshkent.
2. Qodirov, B. R., & Qodirov, K. B. (2008). Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik taraqqiyotida reaksiya tezligining o'rni. Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari: II xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 271–277. Toshkent.
3. Ochilova, B. M. (2021). Yangi O'zbekiston ta'lim tizimi. Journal of Advanced Research and Stability, 1(6), 408–413.
4. Mazur, E. (2009). Farewell, lecture? Science, 323(5910), 50–51. <https://doi.org/10.1126/science.1168927>
5. Leont'ev, A. N. (2004). Deyatel'nost'. Soznanie. Lichnost'. Moskva: Smysl; Izdatel'skiĭ tsentr Akademiya.
6. Lisina, M. I. (2009). Formirovanie lichnosti rebenka v obshchenii. Sankt-Peterburg: Piter.
7. Anan'ev, B. G. (2001). Chelovek kak predmet poznaniya (p. 25). Sankt-Peterburg: Piter.
8. Osipov, G. V. (Ed.). (2000). Sotsiologicheskĭ entsiklopedicheskiĭ slovar'. Moskva: Norma.
9. Kodjaspirova, G. M., & Kodjaspirov, A. Yu. (2005). Slovar' po pedagogike. Moskva: IKTs "MarT"; Rostov n/Donu: Izdatel'skiĭ tsentr "MarT".
10. Musurmonova, O., va boshq. (2011). Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim atamalarining izohli lug'ati. Toshkent: Bekin-machiq-Plyus.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.